

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI



"TASDIQLAYMAN"

 Buxoro davlat
universiteti rektori O. X. Xamidov

2024-yil "30" *avgust*

Ro'yxatga olindi: №

2024-yil "____" _____

AMALIY GRAMMATIKA VA FONETIKA FANINING
O'QUV DASTURI

Bilim sohasi:	200 000	– San'at va gumanitar fanlar
Ta'lim sohalari:	230 000	– Tillar
Ta'lim yo'nalishi:	60 230 100	– Filologiya va tillarni o'qitish (ingliz)

Fan/modul kodi AGF11-210		O'quv yili 2024-2025	Semestr 1-2	ECTS – Kreditlar 10	
Fan/modul turi Majburiy		Ta'lim tili Ingliz tili		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)		Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Amaliy grammatika va fonetika	120		180	300
2.	I.Fanning mazmuni Mazkur fanning asosiy maqsadi kasbiy yo'nalish (filologiya, pedagogika) doirasida tilning og'zaki va yozma shakllarini bilish, nutqiy so'zlashuv ko'nikmasiga ega bo'lish, ijtimoiy-madaniy kommunikativ-muloqot malakalarini takomillashtirish bilan bir qatorda ingliz tilining funksional shakllari va uslublarini egallash, o'rganilayotgan til to'g'risida nazariy bilimlar asoslarini olish hamda olingan bilimlarni kasbiy yo'nalish bo'yicha va ish faoliyatida, shuningdek, ilmiy izlanishlar olib borishda amaliy qo'llay bilishni o'rgatishdir. Fan bo'yicha talabalarning bilimiga, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan talablar Ushbu fan orqali talabalar ingliz tilining og'zaki va yozma shakllarini o'rganishlari, og'zaki so'zlashuv, o'qish, yozish, tinglash kabi til faoliyati turlari asosida nutqiy bilimlardan to'g'ri, funksional jihatdan o'rinli foydalangan holda ularni amaliy qo'llash ko'nikmasiga ega bo'lishlari, olingan bilimlarni kasbiy yo'nalishlari va ish faoliyatlarida amaliy qo'llash malakalariga ega bo'lishlari shart. Mazkur dastur bo'yicha ta'lim olgan bitiruvchi filolog- o'qituvchi (ingliz tili) sifatida quyidagi bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi nazarda tutiladi: • Umum Yevropa standartlariga ko'ra S1 darajasida (darajalar tavsifi ilovada keltirilgan) ingliz tilida tinglab, o'qib tushunishi, gapirish va yozish ko'nikmalariga ega bo'lishi • ingliz tili haqidagi bilimlarning pedagogik ahamiyati haqida tushunchaga ega bo'lishi; • ingliz tilining xalqaro muloqotdagi roli haqida aniq tasavvurga ega bo'lishi.				

Fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy jihatdan uzviy ketma – ketligi

Asosiy chet tili fani fonetika va grammatika, ingliz adabiyoti, chet tili o'qitish metodikasi fanlari bo'yicha nazariy va amaliy kurslarni o'rganish jarayonida foydalana bilishlari shart. Bu ingliz tili fanining ushbu fanlar bilan aloqadorligini va mazmuniy uzviyligini ta'minlaydi.

Fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

Fanni o'zlashtirish uchun shaxsga yo'naltirilgan ta'lim yendashuvidan va chet tili o'qitishga kommunikativ yendashuvdan foydalanish talab etiladi. Mashg'ulotlarda darslik va o'quv qo'llanmalardan tashqari autentik materiallar: audio, video, gazeta va jurnallar, internet manbalaridan foydalanish nazarda tutiladi. Mashg'ulotlar interaktiv usullarni qo'llagan holda aqliy hujum, keys-stadi, loyihalar metodi, drama, debatlar, prezentatsiya metodlaridan keng foydalanish talab etiladi.

Til aspektlari amaliyoti fani 2 modul: *amaliy grammatika* va *amaliy fonetika*ni o'z ichiga oladi. Mazkur kurs bakalavr bosqichida filolog, ingliz tili o'qituvchisi mutaxassisligi

bo'yicha ta'lim olayotgan birinchi bosqich talabalariga mo'ljallangan.

Modul 1: Amaliy grammatika modulining maqsad va vazifalari

- talabalarni grammatik forma va ma'no o'rtasidagi aloqalarni matnlardagi strukturasi haqida bilim va ko'nikmalarini hosil qilish;
 - talabalarning muloqotda grammatik formalarni to'g'ri qo'llay olish ko'nikmalarini shakllantirish
 - talabalarning til modellari va strukturalari xaqidagi bilimlarini oshirish; Ko'rsatilgan maqsadlarni amalga oshirish quyidagi vazifalarni bajarishni taqozo qiladi:
 - Hozirgi ingliz tili grammatikasi haqida umumiy tushunchaga ega bo'lish;
 - Grammatik kategoriyalarni nutq namunalari asosida o'rganish;
 - Ingliz tili grammatikasining umumiy va xususiy qonuniyatlari hamda funktsional xususiyatlari haqida tasavvur hosil qilish;
 - O'zlashtirilgan materialni nutqda qo'llay olish malakasini rivojlantirish va h.k.
- Kommunikativ grammatika moduli bo'yicha talabalar bilim, malaka va ko'nikmalariga qo'yiladigan talablar:

Talabalar I kurs yakunida quyidagilarni o'zlashtira olishlari kerak:

- Grammatik strukturalarni (sodda, murakkab va qo'shma gaplar va h.) muloqotda qo'llash;

- Strukturalarni ajrata olish, ularni ham yozuvda ham nutqda to'g'ri qo'llash;
- Turli muloqot jarayonlarida yangi grammatik strukturasiyning forma va ma'no o'rtasidagi bog'liqlikni tushuna bilish;
- Ingliz tili grammatikasi model va strukturalarining o'ziga xos xususiyatlarini ajrata olish va ularni o'zlashtirish uchun o'z ona tili tizimi bilan taqqoslay olish;
- Muloqotda grammatik xatolarga yo'l qo'ymaslik muhimligini tushuna bilish;
- Mustaqil ravishda grammatik qo'llanma kitoblaridan foydalana olish;
- Muloqotni mazmunli qilish uchun grammatik formalarni qo'llay olish
- Grammatika sohasida mustaqil til o'rganish strategiyalarini qo'llay olish

Modul 2: Amaliy fonetika modulining maqsad va vazifalari

- lug'at boyligini oshirish;
- o'rganilayotgan chet tili leksikasining muloqotdagi xususiyatlarini farqlash va ishlata bilish ko'nikmalarini rivojlantirish;
- lug'at boyligini boyitib borishning maqbul usullaridan foydalanishni o'rgatish.
- o'zlariga tanish bo'lgan mavzu kontekstida so'z ma'nosini anglash (voqealar bayoni, his-hayajon, maqsad, istak, xohish va h.k.);
- tanish, ish va kundalik hayotga taalluqli bo'lgan mavzularda (oilal, sevimli mashg'ulot, ish, sayohat va h.k.) so'z va iboralarni to'g'ri qo'llay olish;
- o'rganilayotgan chet tilidagi so'zlar talaffuzi xususiyatlarini (intonatsiya, urg'u va h.k.) farqlash;
- shaxsiy xususiyat va imkoniyatlaridan kelib chiqib lug'at boyligini oshirishning mutanosib usullarini tanlash;
- lug'at boyligini oshirish uchun manbalar (lug'atlar, registrlar, so'z ko'rsatkichlari va boshqalar) dan foydalanish ko'nikma va malakalarga ega bo'ladilar.
- kursda muhokama etilgan mavzularga tegishli aktiv va passiv leksikani o'zlashtiradilar;
- Ma'lum mavzular bo'yicha muloqot olib borish uchun yetarli darajada lug'at boyligiga ega bo'ladilar.

VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:

Fanni o'qitishda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim metodi va chet tilini o'qitishga kommunikativ yondashuvdan maksimal darajada foydalanish talab etiladi. Mashg'ulotlarda darslik va o'quv qo'llanmalardan tashqari autentik materiallar: audio, video, gazeta va jurnallar, internet manbalaridan, interaktiv usullarni qo'llagan holda aqliy hujum, keys-stadi, loyiha, rolli o'yin, debatlar, prezentasiya metodlaridan keng foydalaniladi.

VII. Kreditlarni olish uchun talablar:

Talaba til egallashning xalqaro e'tirof etilgan darajalariga muvofiq o'rganilayotgan chet tilini kurslar kesimida talab etilgan darajada bosqichma-bosqich o'zlashtirib borishi shart. Jumladan, joriy nazoratda auditoriyada bajariladigan mashq va topshiriqlar, portfolio, kundalik, loyihalar, interv'yu va rolli o'yinlarda faol ishtirok etishi, video va audio materiallarni tushunib tahlil qilishi, muhokamalar jarayonida xorijiy tildan unumli foydalana olishi, oraliq va yakuniy nazoratda matnga asoslangan vazifalardan iborat turli test va topshiriqlarni bajarishi, mantiqiy savollarga mustaqil ravishda xorijiy tilda javob bera olishi, og'zaki va yozma nutq ko'nikmalarini rivojlantirib borishi, mustaqil ta'lim uchun berilgan topshiriqlarni o'z vaqtida bajarishi lozim. Ikkinchi chet tili bo'yicha egallangan bilimlarni nazorat qilishda til bo'yicha barcha kompetensiyalar o'zlashtirilganligi inobatga olinadi.

Asosiy adabiyotlar:

Ingliz tili

1. Mark Hancock English Pronunciation in Use. Cambridge University Press, Cambridge.
2. McCarthy, M. and O'Dell, F (2004). English Phrasal Verbs in Use. Cambridge University Press, Cambridge.
3. McCarthy, M. and O'Dell, F (1994). English Vocabulary in Use. Upper-intermediate and advanced. Cambridge University Press, Cambridge.
4. Ronald E.F (1980). Practice with Idioms. Oxford University Press, Oxford.
5. Jon Wright (1999). Idioms Organiser. Language Teaching Publications, Hove.
6. Mark Hancock (2008) English pronunciation in Use – Intermediate. Cambridge University Press, Cambridge.
7. Martin Hewings (2007) English pronunciation in Use – Addvanced. Cambridge University Press, Cambridge.
8. McCarthy M. and O'Dell F. (1999) English Vocabulary in Use - Elementary. Cambridge University Press, Cambridge.
9. McCarthy M. and O'Dell F. (2004) English Phrasal Verbs in Use. Cambridge University Press, Cambridge.
10. Redman S. (1997) English Vocabulary in Use – Pre-intermediate. Cambridge University Press, Cambridge.
11. Thomas B.J. (1986) Intermediate Vocabulary. Longman, Harlow.
12. Thomas B.J. (1990) Elementary Vocabulary. Longman, Harlow.

Qo'shimcha adabiyotlar:

Ingliz tili

1. Cambridge English Skills Real Listening and Speaking 2 with Answers and Audio CD: Level 1-2.
2. John and Liz Soars. "New headway" (All levels) Oxford university.
3. Malcolm Mann. Destination (full set) Macmillan Education, UK-2013
4. Mark Hancock English Pronunciation in Use. Cambridge University Press, Cambridge.
5. McCarthy, M. and O'Dell, F (2004). English Phrasal Verbs in Use. Cambridge University Press, Cambridge.
6. McCarthy, M. and O'Dell, F (1994). English Vocabulary in Use. Upper-intermediate and advanced. Cambridge University Press, Cambridge.
7. Ronald E.F (1980). Practice with Idioms. Oxford University Press, Oxford.
8. Jon Wright (1999). Idioms Organiser. Language Teaching Publications, Hove.

Internet saytlari

1. <http://www.britishcouncil.org>
2. <http://encyclopedia.farlex.com>
3. <http://tpot.ru/index.html>
4. www.onestopenglish.com.
5. <http://youreng.narod.ru/teoper.html>

Fan dasturi Buxoro davlat universiteti o'quv-metodik Kengashining 2024-yil, 30-avgustdagi 1- sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan va tasdiqlashga rozilik berilgan.

Fan uchun mas'ul:

A.M.Naimova - BuxDU, "Ingliz tilshunosligi" kafedrasida o'qituvchisi



Taqrizchilar:

M.I.Gadoyeva - BuxDU, "Ingliz tilshunosligi" kafedrasida professori.

N.D.Djumayeva - BuxDU, "Ingliz tilshunosligi" kafedrasida dotsenti.

